

ZAMONAVIY BOLALAR SHE'RIYATIDA SHAKLIY-MUNDARIJAVIY IZLANISHLAR

Sodiqova Gulmira To'xtanazarovna.

TTA akademik litseyi o'qituvchisi.

Annotatsiya. Bolalar she'riyatidagi shakliy izlanishlar davrlar mobaynida mazmunan boyib, o'zida navatorlikni kasb etib bordi. Aslan mazmun nisbatan turg'un, shakl o'zi o'zgaruvchan hisolanadi. Azaliy mavzular hisoblangan ishq-muhabbat, ezgulik va yovuzlik o'rtasidagi kurash kabilar ming yillardan buyon turli shakllarda adabiy mahsulot o'laroq she'riyat ixlosmandlari qo'lga yetib borayotgani ham buning dalilidir. Bolalar adabiyotidagi keng ko'lamlı mavzular o'ziga xos shakllarni taqozo etadi.

Kalit so'zlar: bolalar adabiyoti, zamonaviy texnologiya, mavzu doirasi, innovatsiya.

KIRISH

Inson hamisha go'zallikka ehtiyojmand. Adabiyot ham shu ehtiyoj sabab vujudga kelgandir, balki. Bugungi kunda butun dunyo kishilarining turmush tarzi, ish faoliyati, o'y-kechinmalari, fikrlashi tubdan o'zgardi. Bunga, albatta ichki va tashqi omillar ham sabab bo'ldi. Inson ko'nglidagi kechinmalar uning atrofidagi o'zgarishlar bilan uyg'unlashib yangilanish, boshqacha aytganda, zamonaviylashish ehtiyojini yuzagaga keltirdi. Zamonaviylashish ehtiyoji, bu — zamon talablari bilan birga harakatlanishdir. Ushbu jarayonda nazarga olinadigan eng birinchi masala — texnika, texnologiya tushunchalari bilan bog'liq. Texnika va texnologiyaga nisbatan insonning moslashishini tabiiy qabul qilish mumkin, lekin bu yangilanishni adabiyot, badiiy ijod o'zida qanday aks ettirishi kerak degan masala ham bor. Ayniqsa, bolalar adabiyotida uning badiiy talqinini o'rganish bugunning muhim mavzularidandir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Bugun har bir bolaning qo'lida gadjet, bo'lmadi deganda, ular smartfon, kompyuter va boshqa shu turdagi vositalardan qanday foydalanishni yaxshi biladi. Adabiyot, badiiy



asar bolalar qo‘lidagi texnikaning o‘rnini egallashi uchun ayni shu o‘zgarishlarni o‘zida namoyon etishi kerak bo‘ladi. Bu — badiiy asar, umuman, adabiyotbutunlay zamonaviylikka xizmat qilib qolishi kerak degani emas, albatta. Shunday bir “adabiy murosa” yo‘lini tanlash kerakki, unda zamonaviylik bilan an’ana uyg‘unlashib ketsin. Bugungi bola badiiy adabiyotni rad etmagan holda qo‘lidagi smartfondan foydalansin. Buning uchun bolalar o‘qiydigan asarlar o‘ziga tortuvchi — jozibadorbo‘lishi kerak. Bunday she’rlar, asarlar bugungi bolalar adabiyoti namunalari orasida ham mavjud. Ammo ularning yanada ko‘proq bo‘lishi bolalarimizni adabiyotga yaqinlashishiga xizmat qilgan bo‘lardir. Bunday asarlar orqali bolalarning o‘zi mukkasidan ketgan texnika olami yangiliklarini kashf etishlari mumkin bo‘lardir.

Shoir Xudoyberdi Komilovning “Zamonaviy sholg‘om ertagi” deb nomlangan she’ri aynan shunday xarakterda:

Bobom boshladi

Chiqazolmadi.

Buvim ishladi

Chiqazolmadi.

Shu tariqa she’rda bolakayning dadasi, oyisi, opasi, akasi kirishib, tirishib chiqazolmagani aytiladi. Nimani, sholg‘omnimi? Yo‘q, yechim she’r oxirida ma’lum bo‘ladi:

Masala og‘ir,

Urindik qancha.

Kompyuterda oxir

Yechdi sichqoncha.

Mashhur “Sholg‘om” ertagida ham eng oxirida sichqon yordam keladi va sholg‘om yerdan chiqadi. Xuddi shu holatni shoir masala yechish holatiga ko‘chirib, oxiri bunda ham sichqoncha, ya’ni kompyuterning “sichqoncha”si orqali ish hal bo‘lganini aytar ekan, bug‘alatio‘xshashlik — shoirning kashfiyotidan o‘quvchi ham og‘ir masalani yechganboladek



yengil tortib, xursand bo'lsa, ajab emas. Mazkur she'ning muvaffaqiyati ham mavjud an'anani zamonaviylik bilan go'zal uyg'unlikda tasvirlab berolganidadir.

O'zbek bolalar adabiyoti, xususan, she'riyati mavzu ko'laminin torligi, ancha sayozlashib ketgani ham bor gap. Bular jiddiy tanqid qilinmaydi. Quruq kulgidan iborat she'rlar bu adabiyotda ko'payib ketdi. Teran mazmunli she'rlarni topish uchun kitobxon anchaizlanishi zarur bo'lib qoldi. Buning oldini olish, quruq, saviyasiz she'r yozayotgan ijodkorlarni savalash o'rniga bugun bolalar nashrlarida shunday she'rlarga alohida o'rin berilmoqda. Kattalar uchun ijod qilishga mahorati yetmagan ko'plab ijodkorlarning bugun "osonroq" ijod qilish mumkin bo'lgan bolalar adabiyotiga "o'tib olayotganini" hazm qilish qiyin. Bir vaqtlar katta adabiyot vakillari ham bolalar uchun she'rlar yozgan, asarlar yaratgan. Jahon adabiyotida shuhrat topgan Pushkinning, Tolstoyning ham bolalar uchun go'zal asarlari bor. O'zbek adabiyotida ham jadid adabiyoti namoyandalaridan boshlangan bu an'anani Erkin Vohidov davom ettirib, bolalar uchun bir-biridan chiroyli she'rlar yozgan edi. Negadir bugun bu an'ana kuzatilmaydi. Aslida, o'zini adabiyotga daxldorman deb hisoblagan har qanday shaxs adabiyot yukini ko'tarishni bolalar uchun asarlaryaratishdan boshlashi kerak. Chunki insonni adabiyotga oshno qilish bolalikdan boshlanmas ekan, uni keyinchalik uyg'otish murakkab masalaga aylanib qolishi mumkin. Bolalar adabiyotining kuchi, imkoniyatlariga to'g'ri baho berish, uning ahamiyatini oshirish bugunning dolzarb masalalaridan hisoblanadi. Bolalar she'riyati, umuman, adabiyotining mavzu ko'lami shu qadar keng bo'lishi kerak. Ehtimol, bola asarlardan ayrimlarini bugun o'qib tushunmas, ammo kun kelib, albatta, o'qiganlari mohiyatini anglab yetadi. Yoshlikda olingan bilim toshga o'yilgan naqshdir, deb bejiz aytilmagan. Bolalarga mumtoz adabiyot an'alarini, mazmunini ham bugundan boshlab, bolalar uchun yaratilgan adabiyotlardan boshlab singdirish kerak. Ularga komil inson g'oyasi, o'zlikni anglash kabi tushunchalarni sodda, nisbatan og'ir bo'lmagan atamalar, o'zlariga ayon haqiqatlar yordamida anglatish kerakki, ertaga yangi avlod Navoiyni tushunmaymiz bahonasi ostida uni o'qishdan voz kechmasin. Navoiyni o'qir ekan, bolalikda yod olgan she'rlaridagi teran ma'no yodiga kelsin.

XULOSA VA MUNOZARA



Demak, o'zbek bolalar she'riyatida, adabiyotida mavzuning yangilanishi zarurligini yuqorida ta'kidlangani kabi adabiy ehtiyoj o'laroq qisman quyidagi mavzularda ko'rishimiz mumkin:

Yuksak texnika taraqqiyotini milliy an'analar bilan qorishiq holda aks ettirgan badiiy asarlar. Bunday asarlari bugungi kunda ham yaratilgan, albatta.

Mumtoz adabiyot g'oyalarini o'zida qisqa va bolalarga tushunarli tarzda namoyon etuvchi ijod namunalariga bo'lgan ehtiyoj insonning, bolaning ruhiy ehtiyoji o'laroq maydonga chiqadi.

Ma'rifiy-irfoniy mazmun kasb etuvchi she'rlar, hikoyalarga bo'lgan talab bolalarni o'zlikni anglashga, zamonaviylikni an'analar bilan hamohanglikda o'rganishga chorlaydi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Adashboev T., Rajabov D. Satrlardan taralgan mehr. — Toshkent. Turon zamon ziyo, 2017. — 40 b.
2. Azimov I. U. Masterstvo sozdaniya xudojestvennogo obraza v sovremennoy uzbekskoy detskoy poezii: Avtoref. dis. kand. filol. nauk. — Tashkent: 2016. — 23 s.
3. Ashurov B. T. Adashboev she'rlari poetikasi: Filol. fanlari nomz. diss. 2018. — 156 b.
4. No'monova Z. Osmonning fanori. — Toshkent: Akademnashr. 2015. — 38 b.